

YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA XATLOVNING O'RNI

Mirzayev Jonibek Oltiyevich

Qarshi davlat texnika universiteti kata o'qituvchisi
jonibekmirzayev21@gmail.com

Fayzullayeva Lobar Xayrulla qizi

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti
lobarfayzullayeva@gmail.com

Haqqulova Adiba Ochil qizi

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti
adibahaqqulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamiz umumiy yer fondi va undan samarali foydalanish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yer fondi, yer toifalari, sug'oriladigan yerlar, sug'orilmaydigan yerlar, tabiiy resurslari, monitoring.

Abstract. This article discusses the common land fund of our republic and its effective use.

Keywords: land fund, land categories, irrigated land, non-irrigated land, natural resources, monitoring.

Аннотация. В данной статье рассматривается земельный фонд республики и его эффективное использование.

Ключевые слова: земельный фонд, категории земель, орошаемые земли, богарные земли, природные ресурсы, мониторинг.

KIRISH. Yer – tabiiy resurslar ichida alohida ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimiz aholisining turmush faoliyatini ta'minlashda hamda respublika iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim negiz hisoblanadi. Jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd.gektarni tashkil etadi, bundan 11% ya'ni 1,5 mlrd. gektari qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli yerlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining bugungi kundagi chegarasi 44,9 mln.gektarni tashkil etib, quyida (1-jadval) keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi jami foydalaniladigan yer maydoni

(ming.ga hisobida) (1-jadval)

T/p	Республика, шаҳар ва вилоятларнинг номи	Умумий ер майдони		Экин ерлар		Кўп йиллик дарахтзорлар		Бўз ерлар		Пичанзор ва яйловлар		Жами қишлоқ хўжалик ерлари		Томорқа ерлари		Ўрмонзорлар		Боғдорчилик, узумчилик ва сабзавотчилик уюшмаларининг ерлари		Бутazorлар	Бошқа ерлар
		жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани	жами	шу жумладан суғориладигани		
1	Қорақалпоғистон Республикаси	16656,1	517,0	418,8	418,8	8	8	14,2	14,2	5265,4	35,8	5706,4	476,8	52,5	39,4	1074,1	0,8	0,1	0,1	1270,1	8528,2
2	Андижон	430,3	280,6	200,1	200,1	31,4	31,4	2,6	0,5	21,1	0,8	255,2	232,8	58,5	43,9	3,9	3,9	0,3	0,3	0,0	111,8
3	Бухоро	4183,1	276,3	200,1	200,1	21,0	21,0	7,0	7,0	2557,5	0,0	2785,6	228,1	59,6	46,5	334,6	1,7	0,3	0,2	45,3	954,0
4	Жиззах	2117,9	304,9	504,1	259,9	42,5	18,4	11,3	1,7	704,7	0,0	1262,6	280,0	34,5	20,3	163,8	4,6	0,1		0,1	652,4
5	Қашқадарё	2856,8	513,3	675,4	417,3	38,9	36,6	21,9	4,6	1406,5	0,1	2142,7	458,6	80,4	48,7	164,2	6,0	0,3	0,4	0,0	450,8
6	Навоний	10948,1	126,4	122,5	91,4	10,3	9,6	6,8	6,7	8890,5	0,0	9030,1	107,7	26,4	17,1	1270,8	1,6	0,7	0,3	0,0	618,0
7	Наманган	743,3	289,7	185,0	185,0	48,9	48,9	2,5	2,5	164,9	0,0	401,3	236,4	61,4	48,3	22,6	5,0	0,1	0,1	0,0	257,3
8	Самарқанд	1677,3	378,9	423,9	243,1	72,4	66,9	5,2	0,0	796,5	0,0	1298,0	310,0	87,2	62,9	13,0	6,0	0,7	0,3	0,0	275,5
9	Сурхондарё	2009,9	324,8	277,9	238,4	34,2	32,8	0,3	0,0	824,6	0,0	1137,0	271,2	63,2	50,3	233,3	3,3			0,0	575,1
10	Сирдарё	427,6	287,2	248,9	248,9	7,7	7,7	10,2	10,2	19,9	0,0	286,7	266,8	20,6	16,3	4,2	4,1	0,1	0,1	0,1	112,1
11	Тошкент	1515,0	393,7	322,2	289,5	54,7	45,0	0,8	0,4	445,0	1,4	822,7	336,3	67,0	54,9	81,0	2,5	3,6	3,5	2,3	541,8
12	Фарғона	675,3	367,3	242,0	242,0	54,9	54,9	0,0	0,0	9,5	3,9	306,4	300,8	72,9	52,5	14,6	14,0	0,9	0,9	0,0	279,5
13	Хоразм	608,2	267,6	205,3	205,3	13,1	13,1	3,8	3,8	109,3	0,0	331,5	222,2	54,0	45,3	53,6	0,1	0,1	0,1	0,0	168,0
14	Тошкент ш.	43,5	8,4	2,3	2,3	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0	0,0	2,8	2,8	10,1	5,6	0,0	0,0			0,0	30,6
	Жами:	44892,4	4336,1	4028,5	3242,1	438,5	394,8	86,6	51,6	21215,4	42,0	25769	3730,5	748,3	552,0	3433,7	53,6	7,3	6,3	1317,9	13555,1

Tadqiqot o'tkazish uslubiyati. Ushbu maqolani tayyorlashda hududiy tahlil, kartografik, geografik taqqoslash, statistik tahlillardan foydalanilgan.

Natijalar va munozaralar. Yer fondi – mamlakatning jami yer resurslari maydoni. Yer kodeksining 8-moddasiga ko'ra yer fondi 8 toifaga bo'linadi va ular quyidagilar:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadlarga mo'ljallangan yerlardir. Ushbu fond respublikamiz yer fondining asosiy qismini tashkil etadi va 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 26 220,5 ming. gektarni, umumiy yer fondining esa qariyb 58% qismini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan, ko'p yillik daraxtzorlar, haydalma yerlar, yaylovlar hamda bo'z yerlarga bo'linadi.

2. Aholi punkti yerlari – shahar va posyolka, shuningdek qishloq aholi punkti chegaralari doirasidagi yerlardir. Bu fond umumiy yer fondining 0,5% qismini tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha jami aholi punkti yerlari 221,5 ming. gektarni tashkil etadi.

3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – yuridik shaxslarga ana shu maqsadlar uchun berilgan yerlar. Ushbu fond

respublikamiz umumiy yer fondining 1,8% qismini tashkil etadi hamda hozirgi kundagi maydoni 798,8 ming.gektarni tashkil etadi.


4. Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik [1] yerlar kiradi. Bu fond umumiy yer fondining 9,5% qismini ya'ni 4 258,8 ming. gektarni tashkil etadi.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy obyektlar joylashgan yerlar hisoblanib, respublika yer fondining 0,07% qismini ya'ni 32,3 ming gektarni tashkil etadi.

6. O'rmon fondi yerlari - o'rmon bilan qoplangan, shuningdek, o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar[1]. Bu fondning jami maydoni 10 967,7 ming. gektarni, umumiy yer fondining esa 24,4% qismini tashkil etadi.

7. Suv fondi yerlari - suv ob'ektlari hamda suv xo'jaligi inshootlari uchun mo'ljallangan yerlar va suv ob'ektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar. Ushbu toifaning jami maydoni respublika yer fondining 2,3% qismini yoki 1 041,3 ming.gektarni tashkil etadi.


8. Zaxira yerlari – yuqoridagi toifadalar tasarrufida bo'lmagan barcha yerlar. Bu yerlar respublika yer fondining 3% qismini ya'ni 1 351 ming.gektarni tashkil etadi.



1-rasm. Respublikadagi yer fondining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi % hisobida

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turganidek respublika yer fondining asosiy qismini qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tashkil etadi. Bu yerlar asosan 2 turga,

ya'ni sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlarga bo'linadi. Muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlar sug'oriladigan yerlar hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer fondining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi.

Respublikamizda yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida yer fondi bo'yicha monitoring hamda xatlov ishlari amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari bo'yicha yer hisobida ko'rsatilgan yer maydonlarining bugungi kundagi holati o'rganildi.

Xorazm viloyatida yer fondining barcha 8 ta toifasi bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, viloyat bo'yicha jami yerlar 608 ming 158 gektar ko'rsatilgan bo'lsa, xatlov natijasida ushbu yer maydoni 618 ming 432 gektarni tashkil qilgan.

Monitoring natijalariga ko'ra yer toifalarining o'zgarishi asosan qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri kelib, qishloq xo'jaligi fondida turgan yer maydonlari amalda yer fondining boshqa turlariga ya'ni aholi punktlari yerlari, sanoat yerlari, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, suv yerlari va tabiatni muhofaza qilish yerlari hisobiga o'tib ketganligi aniqlangan.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni monitoring qilish bo'yicha boshqa viloyatlarda ko'rsatkichlar quyidagicha:

Andijon viloyatida hisobot bo'yicha 360 ming 585 gektarni tashkil etgan bo'lsa, o'rganish natijasida 294 ming 756 gektar yer maydoni aniqlangan.

Ushbu ko'rsatkichlar Samarqand viloyatida hisobot bo'yicha 1 million 466 ming 18 gektardan amalda 1 million 270 ming 376 gektarga kamayishi kuzatilgan.

Surxondaryo viloyatida 1 million 356 ming 595 gektardan amalda 1 million 221 ming 314 gektarga kamayish aniqlangan bo'lsa, qishloq xo'jaligi yerlari tarkibidagi

sug'oriladigan ekin yerlari maydoni hisobot bo'yicha 296 ming 982,7 gektarni, amalda esa 273 ming 475,3 gektarni tashkil etishi aniqlangan.

817 ming gektar aholi punktlari hamda sanoat yerlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasida yuritib kelingani mazkur yer uchastkalarining mulkdorlariga o'z yerlarini xususiylashtirish, garovga qo'yish va ko'chmas mulk sifatida to'liq tasarruf etishda to'siqlarni yuzaga keltirgan.

Xulosa. Yer umummilliy boylikdir. Undan oqilona va samarali foydalanish zarur. Shu bois, yer resurslarini muhofaza qilish, ularni avaylab ishlatish va kelajak avlodlarga butun holda yetkazish har birimizning burchimizdir. Yerning har bir qarichi mehnat, mas'uliyat va ilm bilan yondashilgandagina baraka beradi. Shu ma'noda, yerga bo'lgan ongli munosabat nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki ekologik barqarorlikning ham asosiy omilidir. Demak, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi – yer boyliklaridan oqilona foydalanib, ularni sog'lom va barqaror holatda saqlab qolishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi yer fondining miqdori holati taxlili”. Safayev Sanjarbek Zafarbek o‘g‘li “O‘zdavyerloyiha” DILI q.x.f.f.d, Sharopov Ramziddin Najmiddinovich O‘zdavyerloyiha” DILI Metodologiya bo‘limi mutaxassisi, q.x.f.f.d.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-son Farmoni.
3. “Turizm va rekreatsion hududlardan samarali foydalanish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida)” Fayzullayeva L.X. “Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamli iqtisodiyot va GIS texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
4. <https://yuz.uz/uz/news/>